



## THE SPREAD OF IDEAS AFFECTING INFORMATION SECURITY IN UZBEKISTAN

**Muhammadbobur Muminov**

researcher

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** globalization, extremist, information, Facebook, Odnoklassniki, Whatsapp, Viber, Telegram, YouTube, and messengers.

**Received:** 22.12.24

**Accepted:** 24.12.24

**Published:** 26.12.24

**Abstract:** The article analyzes and provides information based on scientifically grounded data about the problems of the spread of religious extremist ideas that negatively affect the provision of information security in today's world, as well as the necessary skills to overcome them.

## O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA TA'SIR KO'RSATUVCHI G'OYALARNING TARQALISHI

**Muhammadbobur Muminov**

tadqiqotchi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** globalashuv, ekstremistik, axborot, Facebook, odnoklasniki, Whatsapp, Viber, telegram, Youtube va messsenjerlar

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi kunda axborot xavfsizligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi diniy ekstremistik g'oyalarning tarqalish muammolari va ularni bartaraf etishda talab etiladigan ko'nikmalar sohaga oid ilmiy asoslangan ma'lumotlar asosida tahlil qilinib ma'lumot beriladi.

## РАСПРОСТРАНЕНИЕ ИДЕЙ, КАСАЮЩИХСЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Мухаммадбабур Муминов**

исследователь

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** глобализация, экстремистский, информация, Facebook, Одноклассники, Whatsapp, Viber, Telegram, YouTube и мессенджеры.

**Аннотация:** В статье на основе научно обоснованных данных анализируются и предоставляются сведения о проблемах распространения религиозных экстремистских идей, негативно влияющих на обеспечение информационной безопасности в современном мире, а также о навыках, необходимых для их преодоления.

Bugungi globalashuv sharoitida axborot insoniyat hayotining ajralmas qismiga aylanganligi bois mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash, xususan, yoshlarning axborotdan foydalanishlari uchun sog'lom muhit yaratish muhim hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev yoshlarimizning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish bilan bog'liq vazifalarga to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlab o'tganlar: «Bu borada biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz»[1].

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, tinchlik va barqarorlikni yanada mustahkamlash, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash hamda yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoyalashning mexanizmlari ishlab chiqildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining milliy xavfsizlik konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, «O'zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi hamda «Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi. Qolaversa, diniy ekstremistik g'oyalarning tarqalishiga qarshi kurash olib boruvchi bir qancha mutassaddi tashkilotlar faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnicilik muhitini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 16 diniy konfessiyaga mansub 2238 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2064 tasi islomiy, 157 tasi xristian, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoiy jamoalari, bittadan Krishnani anglash jamiyati va Budda ibodatxonasidir. Bulardan tashqari konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda. Xususan, hozirgi kunda O'zbekiston aholisi soni 32,5 mln.dan oshgan bo'lib, ular 130 dan ziyod millatga mansub hisoblanadi. Fuqarolarning 94% dan ziyodi islom diniga e'tiqod qiladi[2].

Mamlakatda qabul qilingan yuqoridagi chora-tadbirlarga qaramasdan Internet tarmog'idagi turli saytlar, messenjerlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali destruktiv xarakterdagi ma'lumotlarni

tarqatish holatlari mavjud ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Xususan, Facebook, Odnoklassniki, Whatsapp, Viber, Telegram, Youtube kabi ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, videoxostinglar destruktiv g'oyalarni targ'ib etish mumkin bo'lgan virtual muloqot maydoniga aylandi va ularda tarqatilayotgan milliy, diniy adovatni keltirib chiqarishga, diniy ekstremistik g'oyalarni targ'ib qilishga, o'z joniga qasd qilishni rag'batlantiruvchi materiallar soni ortib bormoqda.

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, hozirda Internetda 40 mingdan ko'proq diniy-ekstremistik mazmundagi saytlar mavjud. Jumladan, ISHID o'z g'oyalarining keng tarqalishini ta'minlash maqsadida «Facebook»da shaxsiy «Caliphatebook» nomli ijtimoiy tarmog'ini ochgan bo'lib, hozirda uning sahifalarida radikal g'oyalar tarafdorlari jamoalarini shakllantirishga urinmoqda. Shuningdek, Twitter ijtimoiy tarmog'ida ISHID g'oyalari va faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi 50 ming atrofida akkaunt mavjudligi va ularning har biri o'rtacha mingta «hamfikir» va «izdoshga» ega ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari ISHIDning «al-Furqon» va «Al-Hayot» media markazlari asosan arab, ingliz, nemis, fransuz, rus, hind, urdu, bengal, turk, kurd va boshqa yana bir qator tillarda targ'ibot-tashviqot hurujlarini amalga oshirib kelmoqda.

Internet tarmog'i orqali tarqalayotgan materiallar turli shakllarda bo'lib, ular, asosan, matnli, audio va video ko'rinishlarda keng tarqalmoqda. Jumladan, Youtube videoxostingi orqali har daqiqada turli mavzularga oid 300 soatlik videoroliklar joylanadi hamda Internet tarmog'ida mavjud materiallarning 2,37% i behayolikni targ'ib qiluvchi videolardir.

Mavjud ma'lumotlar tahliliga ko'ra, O'zbekistonda internet tarmog'idan foydalanuvchilar 20 mln.dan ortiq bo'lib, shundan 80 %i mobil internetdan foydalanadi. Respublikada Facebook ijtimoiy tarmog'i foydalanuvchilari soni 500 mingdan ortiq va ularning 300 mingini erkaklar, 220 mingini ayollar tashkil qiladi. Odnoklassniki ijtimoiy tarmog'idan foydalanuvchilarning o'rtacha oylik soni bo'yicha O'zbekiston 3 o'rinni egallagan, ularning soni 2 mln.dan ortiq hisoblanadi. Shuningdek, mazkur foydalanuvchilar ijtimoiy tarmoqda o'rtacha 41 minut vaqt sarflashadi. Shu bilan birga, ushbu tarmoqda videolarni tomosha qilish soni sutkasiga 350 mln.ni tashkil etadi va ushbu sonning 2 mln.ga yaqini O'zbekistonga to'g'ri keladi.

So'nggi yillarda terroristik tashkilotlar g'oyalarini targ'ibot-tashviqot qilishga qaratilgan veb-saytlarning soni bir necha barobarga oshdi. Jumladan, 10 yil avval bunday saytlar soni 20 ta bo'lsa, bugungi kunda terrorchilar foydalanayotgan 40 mingdan ortiq internet saytlari mavjud va ularga xizmat ko'rsatuvchi portallar soni kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday saytlarga turli destruktiv maqsadli sektalar, Internet tarmog'idagi diniy jamoalar vakillariga mamlakatning konstitutsiyaviy tuzumini o'zgartirish, zo'ravonlik, axloqsizlik bilan bog'liq ma'lumotlar joylashtirilmoqda.

Bundan tashqari, diniy ekstremistlar g'arazli ma'lumotlarni WhatsApp, Telegram, Messenger, Viber, Odnoklassniki va Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali bir necha soniya

ichida o'z mijozlariga yetkazib bermoqda, ular asosan «takfir», «hijrat», «jihod», «xalifalik» va «shahid» kabi g'oyalarni ishlatib, o'z maqsadiga erishishni ko'zlagan.

Bunday internet saytlari tarmoqda to'satdan paydo bo'lib, ma'lum vaqt o'tgach yo'qoladi, mazmunini o'zgartirmagan holda tez-tez nomlanishi va domenini o'zgartirib turadi. Shuningdek, ushbu toifadagi saytlar bir tomondan terrorchi tashkilotlarning faol a'zolariga, ikkinchi tomondan terrorchilarning asl maqsad-muddaolarini bilmaydigan, ularni «kurashchilar», «muxolifat» va shu kabi sifatlar bilan qabul qilishga o'rgangan odamlarga mo'ljallangan[3]. Ulardan jamiyatda tegishli ijtimoiy fikrni shakllantirish va qarama-qarshi (dushman) tomonga ruhiy ta'sir ko'rsatish, qo'rquv, vahima tarqatish orqali ichki ikkilanishni keltirib chiqarishdek maqsadlar ko'zlanadi.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, «ISHID», «Hizbut-tahrir», «Akromiylar», «Tablig'chilar» va «Nurchilar» kabi diniy ekstremistik va terroristik harakat a'zolari din niqobi ostida diniy-ma'rifiy mazmuni buzilgan elektron adabiyotlar va turli axborotlarni Internet sahifalariga joylashtirib kelmoqda.

Jumladan, «Nurchilar» harakati nafaqat Internet tarmog'i orqali, balki «Irmoq», «Sizinti», «Yni umit» va «Fontan» kabi 14 ta jurnal, «Yeti iqlim», «Zaman» kundalik gazetasi, «Samanyoli» xususiy telekanali va ikki radiostansiya orqali o'z ma'lumotlarini tarqatib kelmoqda. Shuningdek, «Huzbut-tahrir» diniy ekstremistik oqim vakillari ayollar uchun alohida virtual guruhlar tashkil etib, unga asosan, guruh a'zolarining turmush o'rtoqlari, yaqin qarindoshlari va diniy ekstremistik g'oyalarni tarqatgani uchun jazo muddatini o'tayotgan mahkumlarning yaqinlari jalb qilinmoqda. Hizbchilar bugungi kunda bunday maqsadlarga erishish uchun ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanib, har kuni yangi-yangi ma'lumotlarni Internet sahifalariga joylashtirib bormoqda.

Shu singari diniy ekstremistik va terroristik guruhlar Internetdagi sport mavzusidagi kontentlar ichida veb-konferensiyalari va pornografik sahifalarda o'z ma'lumotlarini yashirmoqda[4]. Bunda ular maxsus shifrlardan foydalanishmoqdaki, mutaxassis bo'lmaganlar, shifr ortiga yashiringan ma'lumotlarni ko'ra olishmaydi. Bo'lajak teraktlarga oid tafsilotlar yoki targ'ibotlar butun Internet bo'ylab yoyilgan ko'rinishda saqlanmoqda va sirli kodlarni bilgan terrorchilar ularni bir joyga jamlab tanishish imkoniga ega bo'lmoqda.

Ekspertlarning fikricha, jangarilar tomonidan tarqatib kelinayotgan videolavhalar yuqori saviyada, professional tarzda tayyorlanib, Internet sahifalariga joylashtirilmoqda. Asosan, ushbu videolavhalarni tayyor-layotganlar muayyan malakaga ega bo'lgan yevropalik yoshlar ekanligi ta'kidlanmoqda. Internetdagi imkoniyatlar bois bunday sifatli videolavhalar jangarilar faoliyatini targ'ib qilish uchun qo'l kelmoqda.

Tahlilchilarning fikricha, har safar jangarilar tomonidan yangi videolavha va fotosuratlar chiqarilganida u avvalgisidan mazmun va sifat jihatdan farq qilib bormoqda. Jangarilar o'zlari

tayyorlagan mahsulot xalqaro jamoatchilikka qanday ta'sir etganini kuzatib, shunga ko'ra ish yuritmoqda.

So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, keyingi paytda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini Internet, xususan Odnoklassniki tarmog'i va WhatsApp messenjeri orqali diniy ekstremistik guruhlariga e'lash urinishlari faollashgan hamda asosan, shu yo'l bilan e'langan 500 dan ko'proq o'zbekistonlikning hozirda Suriya va Iroq hududidagi jihodiy guruhlar safida jang qila'etgani ta'kidlanmoqda[5].

Xulosa qilib aytganda, Internet tarmog'ida tarqatilayotgan materiallar orasida diniy ekstremistik g'oyalarni targ'ib qiluvchi materiallar son jihatdan ortib bormoqda. Bunday g'oyalar targ'iboti bilan shug'ullanuvchilarining aksariyati xorij mamlakatlaridan turib faoliyat olib borishi ularga qarshi kurash olib borishni qiyinlashtirmoqda. Shuningdek, diniy ekstremistik va terroristik tashkilot vakillari ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlardan keng foydalanib, yoshlarni, ayollarni Odnoklassniki, Facebook, Twitter va boshqa shunga o'xshash tarmoqlar orqali ularning ongiga destruktiv g'oyalarni singdirib, o'z tarafdorlarini ko'paytirib borishga intilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi:

O'zbekiston Respublikasining yagona axborot maydonini rivojlantirish va mustahkamlash; aholi orasida ijtimoiy tarmoqlardan, messenjerlardan foydalanish ko'nikmalarini oshirib borish;

O'zbekistonning ichki siyosati haqida tarqatilayotgan noxolis axborotlarga mutassaddi tashkilotlar tomonidan o'z vaqtida javob qaytarish;

Internetda diniy ekstremistik g'oyalarga qarshi ma'rifiy islom g'oyalarini aks ettiruvchi materiallarni joylashtirib boruvchi foydalanuvchilarni rag'batlantirib borish.

#### **Foydalanilgan manbalar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mamlakatimizda diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurashning dolzarb yo'nalishlari. <http://www.religions.uz/cyrl/news/view?id=470>
3. <http://www.uzgbng.uz/news/uz-UZ/o-zbekiston-yangiliklar/2016/12/13/diniy-ekstre-mizm-va-unga-qarshi-kurash-13-12-2016-160034>
4. <http://fikir.uz/blog/poems/dinii-ekstremizm-va-terrorizmga-arshi-kurash.html>
5. <http://mv-vatanparvar.uz/uz/news?id=4687>